THE ROLE OF DIGITAL MARKETING IN BOOSTING TOURISM-RELATED BUSINESSES	1280
Farrukh Mamadiyrov Shukhratovich	
MINTAQA IQTISODIY BARQARORLIGINI BAHOLASH INDIKATORLARI VA USLUBLARI	1284
Turdiyev Ulug'bek Qayumovich	
MAJOR INFLATIONARY FACTORS IN THE ECONOMY OF UZBEKISTAN AND ANTI-INFLATION POLICIES	1290
Koshanov Abdimurat Azat uli, Oralbaeva Diana Mukhit qizi	
ЦИФРОВАЯ ЭКОСИСТЕМА СОВРЕМЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА: МОДЕЛИ, МЕХАНИЗМЫ И НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ	1296
Бекова Азиза Алимовна	
SOLIQ MAJBURIYATLARINI HISOBGA OLISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1301
Abdullayev Abror Bozarboyevich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AKSIZ SOLIINING FISKAL VA IJTIMOIIY ROLI	1308
Abdulxayeva Shaxnoza Muxammadiyevna	
MINTAQAVIIY IQTISODIYOTDA AGROTURIZMNI BAHOLASH USULLARI VA MEZONLARI	1314
Egamberdiyeva Umriniso Tursunqulovna, Ro'zmatov Boburjon Zafarjon o'g'li, Shodiyeva Nafosatxon Hamza qizi	
OLIY TA'LIMDAGI RAQAMLI YECHIMLARNING SAMARADORLIGI VA UNI BAHOLASH MEZONLARI	1320
Abduraxmanova Malika Abdujaparovna	
SURXONDARYO VILOYATI SHAROITIDA AKVAPARK VA SUZISH HAVZALARI QURILISHINI TAHLIL QILISH HAMDA TAVSIYALAR BERISH	1326
Olimjonov Firdavs	
FISKAL FEDERALIZM NAZARIYASI VA UNING AMALIY AHAMIYATI	1332
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Alijonov Ahadjon Hasanboy o'g'li	
OILAVIIY MUHITDA QIZLARNING EMOTSIONAL INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISH: IJTIMOIIY PEDAGOGIK YONDASHUV (O'ZBEKISTONDA)	1336
Qayimova Maftuna Tursunovna	
«YASHIL IPOTEKA» AMALIYOTI: XORIJIY TAJRIBALAR	1340
Berdinazarov Zafar Ulashovich, Xayitov Bobirbek Ergashevich	
ТРАНСФОРМАЦИЯ ПРОЦЕССОВ ПРИНЯТИЯ СТРАТЕГИЧЕСКИХ РЕШЕНИЙ В ЭПОХУ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА. ФОРМИРОВАНИЕ НОВОЙ ПАРАДИГМЫ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ	1344
Бурханова Шахноза Бобировна	
QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORIDA TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI KENGAYTIRISH MASALALARI	1353
Abduvoxidova N.G., Karimova A.M.	
ISHLAB CHIQARISHNI DIVERSIFIKATSIYA ORQALI SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ASOSIIY MECHANIZMLARI	1359
Mirzarayimova Feruza Zokirjon qizi, Levakov Izzatulla Nematillayevich	



TO'G'RI SOLIQLARNI UNDIRISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH AMALIYOTI TAHLILI	1365
Xo'jaqulov Ramshid Yunusovich	
O'ZBEKISTONDA BANK TIZIMINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	1372
Kasimova Zilolaxon Botir qizi	
INNOVATSION FAOLIYATNI MOLIYALASHTIRISHNING IQTISODIY MAZMUNI VA TAMOYILLARI	1379
Gafurov Ma'ruf Xakimovich	
KREDIT RISKI VA UNGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI	1383
Karimova Shohida Zaylobiddinovna	
SURXONDARYO VILOYATI TUMANLARINING IQTISODIY MODERNIZATSIYASI: ASOSIY OMILLAR VA TENDENSIYALAR.....	1389
Qosimova Nodira Saidovna	
BUXORO VILOYATIDA YASHIL AGROTURIZM KONSEPSIYASINI SHAKLLANTIRISH	1395
Umurov J.	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA DAROMADLAR VA ULARNI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI.....	1403
Ostonaqulova Gulchehraxon Muhammadyoqub qizi	
MINTAQADA KICHIK BIZNESNING EKSPORT SALOHİYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	1409
Raxmatullayev Umarbek Ulug'bekovich	
FERMERLAR KOOPERATSIYASI VA XALQARO BOZORLARGA KIRISH: O'TISH DAVRI IQTISODIYOTIDAN XULQ-ATVOR, DEMOGRAFIK VA INSTITUTSIONAL NUQTAI NAZARLAR.....	1415
Tursunqulov G'olib Shavkat o'g'li	
ERKIN IQTISODIY ZONALARNI KLASSTER ASOSIDA RIVOJLANTIRISH	1422
Mamadiyev Elyor Akmalovich, Sharipov K. A.	
КОРПОРАТИВНОЕ УПРАВЛЕНИЕ В АВТОМОБИЛЬНОМ СЕКТОРЕ УЗБЕКИСТАНА: СТРАТЕГИИ УПРАВЛЕНИЯ РИСКАМИ ДЛЯ УСТОЙЧИВОГО РОСТА И СОБЛЮДЕНИЯ РЕГУЛЯТОРНЫХ ТРЕБОВАНИЙ.....	1427
Шамсуддинов Шухрат Нематович	
ПУТИ ВНЕДРЕНИЯ И СТИМУЛИРОВАНИЯ ИННОВАЦИОННОГО ПОТЕНЦИАЛА НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ.....	1431
U. D. Gayratov	
O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASIGA BO'LGAN EHTIYOJ VA ZARURIYAT: UNING AHAMIYATI.....	1435
Sh.N.G'afforov	
MEHNAT RESURSLARINI BOSHQARISH VA UNI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI	1439
Uzoqov Lutfillojon Fayzullojonovich	
DAVLAT TOMONIDAN IQTISODIY NAZORATNING BOZOR BARQARORLIGINI TA'MINLASHDAGI ROLI: O'ZBEKISTON TAJRIBASI VA GLOBAL AMALIYOT TAHLILI	1443
Rasulev Alisher Fayziyevich. Karimov Ulug'bek Mirzajon o'g'li	
TASHQI DAVLAT QARZINING VALYUTA TUZILMASI VA UNING QARZ BARQARORLIGIGA TA'SIRI TAHLILI	1446
Sanakulova B. R., Jamolov M.M.	
ASOSIY MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLAR ORQALI DAROMADLAR O'SISHINI BAHOLASH METODOLOGIYASI.....	1452
Eshbaeva Shahnoza Faxriddinovna	
ЭКОНОМИКА УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ: СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ И ПРАКТИКА.....	1457
Рустамов Зокир Тоирович	
EKSPORT DIVERSIFIKATSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA AKT NING ROLI: RIVOJLANAYOTGAN DAVLATLAR MISOLIDA	1461
Sadriddinov Ulug'bek Jaloliddin o'g'li	
ВЗАИМОСВЯЗЬ МЕЖДУ ИНВЕСТИЦИОННЫМИ ПОТОКАМИ И ИМПОРТОМ В УЗБЕКИСТАНА	1467
Рустамов Фозилжон	
ICHKI BOZORDA PARRANDA GO'SHTI MAHSULOTINING NARX BARQARORLIGI VA KELGUSI TENDENSIYALARINI EKONOMETRIK MODELLAR ORQALI BAHOLASH	1475
Jumayev Olimjon Sadulloyevich	



TIBBIY XIZMAT INFRATUZILMASINING FARG'ONA IQTISODIY RAYONIDA JOYLASHUV XUSUSIYATLARI.....	1483
Xolmirzayeva Zulayxo Axmadjon qizi	
TIJORAT BANKLARIDA MARKETING FAOLIYATINI BAHOLASH BO'YICHA METODOLOGIK YONDASHUVLAR ISHLAB CHIQISH.....	1488
Ibragimova Shaxlo Alimbayevna	
ENERGY TRANSITION DEBATE: ELECTRIC VEHICLES, OIL AND THE "GREEN" PARADOX.....	1492
Tokhirjonov Temurbek Alimardon ogli, Numonjon Malikov	
SANOATLASHUV NATIJASIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA AHOLI BANDLIGINING KAMAYISHI TAHLILI	1500
B.Beknazarov	
RESPUBLIKA TO'QIMACHILIK SANOATINING SHAKLLANISHI VA MUSTAQILLIK YILLARIDA RIVOJLANISHI.....	1505
Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich	
"YASHIL IQTISODIYOT" VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYANING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	1510
Qurbonov Shovqi Djurayevich	
THE ROLE OF ENVIRONMENTAL FACTORS IN THE COURSE OF ACUTE RHEUMATIC FEVER IN CHILDREN.....	1516
Kuldashev Sardor Furqatovich	
MOLIYAVIY INKLYUZIYA DARAJASINI BAHOLASHNING AXBOROT TIZIMI ASOSIDA MONITORING MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI.....	1520
Adashaliyev Baxtiyorjon Valisher o'g'li	
EKSPORT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSIYALARNING AHAMIYATI	1527
Sobirova Muxlisa	
MAHALLIY BUDJETLAR MUSTAQILLIGINI TA'MINLASHDA SOLIQ TUSHUMLARI VA TRANSFERTLAR NISBATINI OPTIMALLASHTIRISH.....	1531
Muxitdinov Sidikxo'ja Akobirxo'ja o'g'li	
BANK TIZIMI ORQALI YASHIL MOLIYANI RIVOJLANTIRISH: GREEN ADVISORY SERVICES XIZMATLARINING ZAMONAVIY AMALIYOTI.....	1537
Abdumutalova Gulrux Shuxratjon qizi	
ISLOMIY MOLIYA VA RAQAMLI BANK EKOTIZIMLARINING INTEGRATSIYASINING O'ZBEKISTONDAGI ISTIQBOLLARI	1544
Galatov Abbos Alibekovich	
AGROSERVIS XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI.....	1551
Abilov Feruz Nematullayevich	
TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA TIJORAT BANKLARI KREDITLARI AMALIYOTI BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA ULARNI KAMAYTIRISH YO'LLARI	1554
Jabbarov Nodir Umirovich	
OLIY TA'LIM MALAKALARINI XALQARO TAN OLIHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI: BOLONYA JARAYONI VA YUNESKO GLOBAL KONVENSIYASI QIYOSIY TAHLILI	1559
Saidov Muxammad Ali Hakimovich, Iminoxunov Abduqahhor Abduvohidovich	
IQTISODIY O'SISHNING NAZARIY ASOSLARI VA UNI BELGILOVCHI OMILLAR TAHLILI.....	1563
G'ulomjan Matkarimov	
O'ZBEKISTONDA MUZEY TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL YO'NALISHLARI.....	1568
Yulduz Urinbayeva	
DEVELOPMENT OF A METHODOLOGY FOR THE DIGITALIZATION OF TANGIBLE TECHNICAL ASSET INVENTORY IN THE DIGITAL ECONOMY.....	1573
Izzatilla Pulatov Quدراتillayevich	
THE IMPACT OF NATIONAL ECONOMY COMPETITIVENESS ON ECONOMIC GROWTH	1581
Siddikov Askar Axrorovich, Turapov Siroj Mamadoli o'g'li	



TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN AGRAR SEKTORNI MOLIALASHTIRISH TIZIMI TAKOMILLASHTIRISH YO'NASHISHLARI	1585
Azizov Shuxrat Maxmutovich	
SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI O'QITISHGA QARATILGAN LOYIHALARINI MOLIALASHTIRISH MEXANIZMLARI VA ULARNING SAMARADORLIK TAHLILI.....	1593
Rapiyev Alisher Parda o'g'li, Toshboyev Ikrom O'ktamovich	
MINTAQALARNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA TADBIRKORLIK SALOHİYATI AHAMIYATINING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	1597
Madaminov Damir Abduraxmanovich	
АБСОРБЦИОННАЯ СПОСОБНОСТЬ И ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТЬ ТРУДА: МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ МЕЖСТРАНОВОГО АНАЛИЗА	1602
Султанова Л.Ш.	
KADRLAR MENEJMENTIDA MOTIVATSIYA TIZIMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1607
Latipov Ashur Ali Rustam o'g'li, Xakimov Damir Ulug'bekovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHI VA MILLIY IQTISODIY STRATEGIYAGA TA'SIRI.....	1612
Artikova Shoxida Ilyasovna, Xakimov Damir Ulug'bekovich	
"YASHIL" IQTISODIYOT TAMOIYILLARI ASOSIDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH YO'LLARI.....	1616
Rustamov Narzillo Istamovich	
KATTA HAJMDAGI MA'LUMOTLAR (BIG DATA) ORQALI EKOLOGIK VA IQTISODIY JARAYONLARNI OPTIMALLASHTIRISH.....	1621
Mullajonova Fotima Tuychibayevna	
ТОРГОВЫЙ БАЛАНС МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И КИТАЕМ И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА ЭКОНОМИКУ: АНАЛИЗ ОТРАСЛЕЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ	1627
He Xiaogu, Urkinbaev T. A.	
РЕЙТИНГОВАЯ ОЦЕНКА ЭКОЛОГИЧЕСКИХ АСПЕКТОВ ДЛЯ ДАЛЬНЕЙШЕГО РАЗВИТИЯ «ЗЕЛЕННОЙ» ЭНЕРГЕТИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	1632
Тураева Сурия	
HUDUDLARNI IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA ERKIN IQTISODIY HUDUDLARNING O'RNI	1641
N. Tursunov	
ВНЕДРЕНИЕ ИНСТРУМЕНТОВ НЕЙРОМАРКЕТИНГА В B2B- И B2C-СЕКТОРАХ ПЛОДООВОЩНОЙ ИНДУСТРИИ.....	1646
Садий Шукрилло Асатилло угли	
ЭФФЕКТИВНОСТЬ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ В ПРИВЛЕЧЕНИИ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ	1653
Qian Xuanhong, Вохидова Мехри	
MAHALLALARDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH — KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA.....	1659
Xolmuratov Salimbek Eshbekovich	
DAVLAT QARZLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	1663
Valiyeva Gulxayyo, Samandarova Gulmira	
YASHIL TURIZMNING MOHIYATI VA UNI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	1666
Qurbanbayev Shuhrat Bakbergenovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA ISLON BANKLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	1670
S. Sayfullayev	
IT LOYIHALARINI BOSHQARISHNING TASHKILIY JIHATLARI	1675
Mansurova Bibinur Miyirbek Qizi	
O'ZBEKISTONNING INVESTITSIYA SIYOSATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	1679
Babaeva Nargiza Muzafarovna	
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH DASTURLARINI BAJARILISHIDA MOLIAVIY SIYOSAT DOIRASIDA MOLIAVIY DASTAKLARDAN FOYDALANISHDAGI TENDENSIYALAR TAHLILI	1686
Mirzaxalikov Bobir Baxtiyorovich	



KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	1692
Mullajanov Iskandar Tadjibayevich	
TURIZM SOHASIDA MARKETING KOMMUNIKATSIYALARI VA KONTENT MARKETINGNING O'RNII	1697
Bozorov Samar Safarovich	
JANUBIY KOREYADA TIBBIY TURIZMNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH TAJRIBASI	1702
Azizova Nazira To'xtayevna	



JANUBIY KOREYADA TIBBIY TURIZMNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH TAJRIBASI

Azizova Nazira To'xtayevna

Turizm kafedrası dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Janubiy Koreya esa yuqori texnologiyalarga asoslangan tibbiy xizmatlar, raqamlashtirilgan boshqaruv tizimi, ilg'or jarrohlik va kosmetologiya amaliyotlari orqali xalqaro miqyosda raqobatbardosh tibbiy turizm modelini yaratganligi ko'rsatiladi. Mamlakat hukumati tibbiy turizmni milliy strategiya darajasiga ko'targan bo'lib, K-Health brendi ostida sog'liqni saqlash xizmatlarini eksport qilishga alohida e'tibor qaratmoqda. Davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik modeli, xorijiy bemorlarni qo'llab-quvvatlovchi ko'p tarmoqli xizmatlar, vizasiz rejimlar va tillar bo'yicha moslashtirilgan xizmatlar Janubiy Koreya tajribasining muvaffaqiyat kalitlaridan biri hisoblanadi.

Kalit so'zlar: K-health brendi, tibbiy turizm xizmatlari eksporti, sog'liqni saqlash turizmi, Xalqaro Qo'shma Komissiya (JCI) akkreditatsiyasi, davlat strategiyasi, narx siyosati, sog'lomlashtirish dasturlari, Janubiy Koreya tajribasi.

Abstract. This article demonstrates that South Korea has developed an internationally competitive medical tourism model based on high-tech healthcare services, a digitalized management system, and advanced surgical and cosmetic practices. The government has elevated medical tourism to the level of a national strategy, placing particular emphasis on exporting healthcare services under the K-Health brand. The public-private partnership model, comprehensive support services for foreign patients, visa-free regimes, and linguistically tailored services are considered among the key success factors of South Korea's medical tourism development.

Key words: K-Health brand, export of medical tourism services, healthcare tourism, Joint Commission International (JCI) accreditation, state strategy, pricing policy, wellness programs, South Korea's experience.

Аннотация. В данной статье показано, что Южная Корея сформировала конкурентоспособную на международном уровне модель медицинского туризма на основе высокотехнологичных медицинских услуг, цифровизированной системы управления, передовых хирургических и косметологических практик. Правительство страны возвело медицинский туризм в ранг национальной стратегии, уделяя особое внимание экспорту медицинских услуг под брендом K-Health. Модель государственно-частного партнёрства, многопрофильные сервисы по сопровождению иностранных пациентов, безвизовые режимы и адаптированные по языковому признаку услуги являются одними из ключевых факторов успешного развития медицинского туризма в Южной Корее.

Ключевые слова: бренд K-Health, экспорт услуг медицинского туризма, туризм в сфере здравоохранения, аккредитация Joint Commission International (JCI), государственная стратегия, ценовая политика, оздоровительные программы, опыт Южной Кореи.

KIRISH

Jahon axborot texnologiyalari markazi va XXI asrning raqamli davri yetakchisi bo'lgan Koreya Respublikasi barcha sohalarda, jumladan, moda va oziq-ovqat sanoatida rivojlanish to'liqini yuqori natijalarga erishmoqda. Shuningdek, so'nggi o'n yil ichida tibbiy turizm global iqtisodiyotda jadal rivojlanayotgan sohalardan biriga aylangan Janubiy Koreya bu yo'nalishda Osiyoda eng muvaffaqiyatli davlatlardan biri bo'lib, tibbiy xizmatlarning yuqori sifati, zamonaviy texnologiyalar va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari orqali xalqaro e'tirofga sazovor bo'ldi. Koreya sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish instituti ta'kidlashicha, "Koreya sog'liqni saqlash industriyasi nafaqat ichki ehtiyojlarni, balki global bozordagi talabni ham samarali qondira olmoqda [1]". Xususan, Koreya tibbiyot texnologiyasi kelajakdagi tibbiyot sanoatini boshqaradigan global tibbiy turizm markazi sifatida tanilmoqda. Ilg'or tibbiy asbob-uskunalar, smart tibbiy axborot texnologiyalari, smart shifoxonalar, innovatsion davolash va davolanish uslublari bilan xalqaro nufuzga ega Koreya endilikda "shifokorlar tayyorlash beshigi"ga aylanmoqda [2]. Koreya Respublikasi Sog'liqni saqlash va farovonlik vazirligida ro'yxatdan o'tgan professional tibbiy turizm agentliklari orqali aeroportdan qabul qilishdan tortib, kasalxonaga yotqizish, davolash, jarrohlik va turizm kabi ishonchli tibbiy turizm xizmatlarini taqdim etadi. Hukumat tomonidan tasdiqlangan



Xalqaro tibbiy sayohat koordinatori (International Medical Tour Coordinator) sertifikatlash tizimi orqali Koreya tibbiy sayyohlarning qoniqish darajasini oshirmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tibbiy turizmning shakllanishi va rivojlanishi masalalari so'nggi yillarda jahon ilmiy adabiyotlarida muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biriga aylandi. Mazkur soha tibbiy xizmatlar eksporti, sog'liqni saqlash tizimining xalqaro integratsiyasi hamda turizm industriyasining diversifikatsiyasi bilan uzviy bog'liq holda o'rganilmoqda. Xususan, Janubiy Koreya tajribasi tibbiy turizmni davlat siyosati darajasida qo'llab-quvvatlash va samarali institutsional mexanizmlarni joriy etish nuqtayi nazaridan alohida ilmiy qiziqish uyg'otadi.

Tibbiy turizmning nazariy-uslubiy asoslanishi, narx siyosati, tibbiy turizm klasterlari R.Fernandez, F.J.DeMicco, A.A.Poorani, M.Z.Bookman, K.R.Bookman kabi g'arb olimlari [3] va P.I.Ananchenkova, T.N.Timchenko, V.V.Tonkonog, A.N.Dayxes, G.Yu.Shekin va boshqa rossiyalik tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan [4,5,6].

Tibbiy turizmning nazariy va uslubiy asoslari, uning iqtisodiy samaradorligi hamda global sog'liqni saqlash bozorida o'rni g'arb olimlari R. Fernandez, F.J. DeMicco, A.A. Poorani, M.Z. Bookman va K.R. Bookmanlarning ilmiy ishlarida atroflicha tahlil qilingan. Ushbu tadqiqotlarda tibbiy turizmning konseptual asoslari, narx siyosati, xizmatlar raqobatbardoshligi va xalqaro bemorlar oqimini boshqarish mexanizmlari yoritilgan. Xususan, Bookman va Bookman tibbiy turizmni xizmatlar eksportining alohida shakli sifatida baholab, uning makroiqtisodiy ta'siri va sog'liqni saqlash tizimiga keltiradigan institutsional o'zgarishlarini asoslab bergan.

Rossiyalik tadqiqotchilar P.I. Ananchenkova, T.N. Timchenko, V.V. Tonkonog, A.N. Dayxes va G.Yu. Shekinlarning ilmiy ishlarida esa tibbiy turizm klasterlari, hududiy rivojlanish, davlat va xususiy sektor hamkorligi hamda tibbiy infratuzilmani modernizatsiya qilish masalalari chuqur o'rganilgan. Ushbu mualliflar tibbiy turizmni sog'liqni saqlash, transport, mehmonxona xo'jaligi va sug'urta tizimlarini birlashtiruvchi kompleks tizim sifatida talqin qiladilar.

Korea Tourism Organization (KTO) tomonidan chop etilgan "Medical Korea" (2023) ma'lumotnomasida mamlakatda tibbiy turizmning asosiy yo'nalishlari, jumladan, plastik jarrohlik, stomatologiya, onkologiya, reproduktiv tibbiyot va reabilitatsiya xizmatlari bo'yicha statistik va tavsifiy ma'lumotlar keltirilgan. Ushbu manbada Janubiy Koreyaning tibbiy turizm bo'yicha Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi yetakchi o'rni ilmiy asosda ko'rsatib berilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda tibbiy turizmni turizm klasterlari doirasida integratsiya qilish jarayonlarini o'rganishda tizimli, qiyosiy va tahliliy yondashuvlar qo'llanildi. Tadqiqot davomida Janubiy Koreyaning tibbiy turizm klasterlari faoliyati qiyosiy tahlil qilinib, ularning muvaffaqiyat omillari (sog'lomlashtirish markazlari, klinikalar, mehmonxonalar, transport va marketing tizimining integratsiyasi) aniqlab chiqildi. Mazkur tajribalar asosida O'zbekiston sharoitida tibbiy xizmatlar va turistik infratuzilmani birlashtiruvchi model ishlab chiqish uchun tahliliy asos yaratildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tibbiy turizm Koreyada 2000-yillarning oxirlarida strategik soha sifatida shakllandi. Ayniqsa, davlat tomonidan sohani rivojlantirishga qaratilgan e'tibor alohida ahamiyat kasb etadi.

1 – jadval. Janubiy Koreyada tibbiy turizmning shakllanish tarixi va rivojlanish bosqichlari [7]

Yil	Hodisa
2009-yil:	Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan xorijiy bemorlarni jalb qilish bo'yicha rasmiy siyosat yo'lga qo'yildi.
2010–2015-yillar:	"Medical Korea" brendi ostida marketing kompaniyalari amalga oshirildi.
2016-yil:	Xorijiy bemorlarni rasmiy ro'yxatdan o'tkazish va monitoring qilish boshlandi.
2020-yildan keyin:	Raqamli xizmatlar, onlayn maslahatlar va robotlashtirilgan jarrohlik texnologiyalari jadal rivojlandi.



Tibbiy turizmning rasmiy shakllanish bosqichi 2009-yilda hukumat tibbiy turizmni eksport sohasining ustuvor yo'nalishi sifatida e'lon qilishi bilan boshladi. Bir yil o'tar-o'tmas "Medical Korea" brendi ostida keng ko'lamli targ'ibot ishlari amalga tadbqiq etila boshladi. Janubiy Koreya 120 dan ortiq davlatlarda o'z sog'liqni saqlash xizmatlarini reklama qiluvchi tarmoq va ko'rgazmalar orqali xorijiy mijozlarni jalb etmoqda. Mamlakatda KHIDI (Korea Health Industry Development Institute) orqali xorijiy bemorlarni boshqarish tizimi kuchaytirildi. Covid-19 ning jahon iqtisodiyotiga salbiy ta'siri oqibatida tibbiy turizm bozorida yangi yo'nalishlar paydo bo'ldi. Jumladan, Janubiy Koreyada onlayn tibbiy konsultatsiyalar, raqamli texnologiyalar va AI texnologiyalar integratsiyasi rivojlandi. Shuningdek, tibbiy bemorlarga tashxis, davolash, yashash va dam olish xizmatlari bir joyda taqdim etiladigan klinikalar, mehmonxonalar va transport xizmatlari o'zaro muvofiqlashtirilgan. Xorijiy bemorlar uchun maxsus o'qitilgan koordinatorlar va tibbiy tarjimonlar xizmatlari yo'lga qo'yilgan (1-jadval). Shu bilan bir qatorda, Janubiy Koreya sog'liqni saqlash vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, sanoatning bandlikdagi ulushi 50 mingdan ortiq ish o'rnini tashkil etadi.

Janubiy Koreya tibbiy xizmatlar sifati, zamonaviy texnologiyalar, bemorlar xavfsizligini ta'minlash tizimi va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash bo'yicha yetakchi davlatlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Mamlakatda xalqaro akkreditatsiyadan o'tgan ko'plab klinikalar faoliyat yuritadi, bu esa xorijiy bemorlarning ishonchini oshiradi. Shuningdek, davolash jarayoni bilan birga, bemorlarga qulay turar joy, ovqatlanish, transport va madaniy hordiq chiqarish imkoniyatlari ham taqdim etiladi. Natijada, Janubiy Koreya tibbiy turizmning integratsiyalashgan modeli asosida rivojlanayotgan markazga aylangan bo'lib, har yili minglab xorijiy bemorlar ushbu mamlakatni tanlamogda. Bu esa nafaqat sog'liqni saqlash sohasiga, balki turizm, transport va xizmat ko'rsatish kabi boshqa tarmoqlarga ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Mamlakat jozibador tibbiy turizm xizmatlari bilan Xitoy, AQSH, Rossiya, Yaponiya, O'zbekistonliklarni jalb etmoqda.

Janubiy Koreyaga asosan tibbiy turistlar kompleks ichki tibbiyot, plastik jarrohlik, dermatologiya, akusherlik, ginekologiya, diagnostika markazlari, ortopediya va an'anaviy koreys tibbiyoti mutaxassisliklari xizmatlaridan foydalanish uchun tashrif buyurishadi. Koreyaning umumiy shifoxonalarida transplantatsiya, robotlashtirilgan va endoskopik operatsiyalari o'tkaziladi. Gangnam tumanida joylashgan dunyodagi eng yirik estetik klinikalar xalqaro bemorlar uchun maxsus xizmatlarni taklif qiladi.

Koreyaning bir qator umumiy kasalxonalari AQShning Newsweek jurnali tomonidan 2021-yilgi Jahon kasalxonalar reytingida dunyodagi eng yaxshi 100 kasalxona qatoriga kirdi va bu ularning global maqomini tasdiqlaydi. Seuldagi Asan tibbiyot markazi va Seul milliy universiteti kasalxonasi dunyoning 50 ta eng yaxshi shifoxonalaridan biri sifatida tan olingan. Samsung tibbiyot markazi, Severance kasalxonasi, Seul milliy universiteti Bundang kasalxonasi, Seul Sent-Meri kasalxonasi, Koreya universiteti Anam tibbiyot markazi dunyodagi 100 ta eng yaxshi shifoxonalar deb e'tirof etiladi.

3 - jadval. Janubiy Koreya shifoxonalarining xalqaro reytingdagi o'rni [8]


Janubiy Koreya reytingi	Shifoxonalarining nomi	Xalqaro reyting
1.	Seuldagi ASAN tibbiyot markazi	34
2.	Seul milliy universiteti kasalxonasi	42
3.	Samsung tibbiyot markazi	73
4.	Severance tibbiyot markazi	76
5.	Seul milliy universiteti Bundang kasalxonasi	87
6.	Seul aviyo Merry kasalxonasi	89
7.	Koreya universiteti Anam tibbiyot markazi	97

Janubiy Koreya hukumati sog'liqni saqlash xizmatlarini eksport qilindigan soha sifatida rivojlantirishga katta e'tibor bermoqda. Mamlakatda 1 800 ta tibbiyot muassasalari xalqaro tibbiy turistlarga xizmat qiladi. Xususan, sohani rivojlantirish maqsadida bir qator davlat siyosati darajasida chora-tadbirlar amalga oshirib kelmoqda. Bunga misol tariqasida, "Medical Korea" brendi ostida Janubiy Koreya 120 dan ortiq davlatlarda o'z sog'liqni saqlash xizmatlarini reklama qiluvchi tarmoq va ko'rgazmalar orqali xorijiy mijozlarni jalb etmoqda. "Medical Korea Expo" har yili Seulda o'tkaziladigan xalqaro ko'rgazma o'tkaziladi. Tibbiy turizmni rivojlantirish strategiyalari orasida xorijiy bemorlar uchun maxsus o'qitilgan koordinatorlar xizmatlari yo'lga qo'yilgan. Tibbiy tarjimonlar 6 tadan ortiq (ingliz, rus, arab, xitoy, o'zbek, fransuz) tillar bo'yicha xizmat ko'rsatadi. Integratsiyalashgan "One-stop service" modeli asosida bemorga tashxis, davolash, yashash va dam olish xizmatlari bir joyda taqdim etiladi. Klinikalar, mehmonxonalar va transport xizmatlari o'zaro muvofiqlashtirilgan. Musulmon bemorlar uchun ixtisoslashtirilgan xizmatlar: halal tibbiy muolajalar, Halal restoranlar, namoz o'qish uchun joylar kabi xizmatlar bilan musulmon bemorlar oqimini ko'paytirish strategiyasi yo'lga qo'yilgan.



1-rasm. Pandemiya oldin Janubiy Koreyaga tashrif buyurgan tibbiy turistlar soni [9] (yillar kesimida, mingda)

Tibbiy turizmni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash qonun va qonunosti hujjatlari bilan tartibga solingan bo'lib, shaffoflik to'liq ta'minlanadi. Qonunchilikka ko'ra, qalbakilashtirilgan sertifikatlar uchun 27 ming AQSh dollari jarima yoki 3 yilgacha qamoq jazosi qo'llaniladi. Bunday qonunbuzarliklar to'g'risida tegishli mutasaddilarga murojaat qilgan shaxslarga 9 ming AQSh dollari miqdorida rag'batlantirish sifatida pul mukofoti beriladi [10]. Bunday qonunlarning joriy etilishi mamlakatda sifatli tibbiy xizmatlar ko'rsatilishining qonuniy asosi va Koreyaning xalqaro nufuzini belgilab beradi.



2-rasm. Pandemiya keyingi Janubiy Koreyaga tashrif buyurgan tibbiy turistlar soni [11] (yillar kesimida, mingda)

Manba: The Korea Times ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlanma.

Pandemiya oldingi davrga ahamiyat qaratiladigan bo'lsa, 2019-yilda Janubiy Koreya tibbiy turizmدا rekord darajaga erishdi, bu esa mamlakatning yuqori texnologik tibbiy xizmatlari va xalqaro bemorlar uchun qulay sharoitlar yaratishdagi muvaffaqiyatini ko'rsatadi. Koreyaga tashrif buyurgan xorijlik bemorlar soni 2009-yildan 2019-yilgacha bo'lgan muddat davomida deyarli har yili o'sgan. Umumiy miqdorda Janubiy Koreyaga shu yillar hisobidan 2 760 553 mln tibbiy turist mamlakat hududiga tibbiy muolajaar qabul qilish maqsadida kirgan. Koreyaga nafaqat Xitoy, Yaponiya kabi yaqin davlatlar, balki dunyoning boshqa mintaqalari – Rossiya, Markaziy Osiyo, Yaqin Sharq, Amerika va Yevropa davlatlari fuqarolari ham davolanish uchun keladi.

2023-yilda Koreyaga tashrif buyurgan bemorlardan tushgan umumiy summa 2,798 mlrd AQSh dollarini tashkil qiladi. Pandemiya oldingi 10 yillik tibbiy turistlarning eng katta soni 2019-yilda 400 mingdan ortiq natija bilan yakunlangan edi. Biroq, pandemiya keyin mamlakat o'zining sanoatdagi ulushini tezda tiklab oldi. Ta'sir qiluvchi omillar qatorida an'anaviy koreys tabobatining tibbiy turizmдagi roli va ahamiyatini keltirish mumkin.



Janubiy Koreyada an'anaviy xalq tabobati Hanbang deb ataladi va u ming yillik tarixga ega. Bugungi kunda Hanbang tibbiyotining elementlari zamonaviy tibbiyot bilan integratsiyalashib, nafaqat mahalliy aholiga, balki xorijiy tibbiy sayyohlarga ham keng xizmat ko'rsatmoqda. Tabiiy dori-darmonlar, akupunktura, massaj, jenshen asosidagi muolajalar ushbu tizimning asosini tashkil etadi. Janubiy Koreya xalq tabobati qadimiy Xitoy tibbiyotidan ilhom olgan bo'lsa-da, o'ziga xos yondashuv va tabiiy resurslardan foydalanish orqali mustaqil rivojlangan. Qirol Seonjo davrida Heo Jun tomonidan 1613-yilda yozilgan, koreys tibbiyotining ensiklopediyasi sifatida tan olingan "Donguibogam" va jenshen (insam) o'simligi an'anaviy koreys tibbiyotining tarixiy ildizi hisoblanadi. Hanbang tibbiyotida sog'liqning asosi organizmdagi "yin-yang" muvozanatining saqlanishi bilan bog'liq. Har qanday kasallik organizm muvozanatining buzilishi sifatida qaraladi. Janubiy Koreyada an'anaviy va zamonaviy tibbiyot rasmiy ravishda tan olingan bo'lib, Hanbang klinikalari litsenziyalangan va ularda maxsus malakali xodimlar, mutaxassislar ishlaydi. An'anaviy dorixonalarda retsept asosida dorivor o'simliklar, qaynatmalar, losonlar sotiladi. Koreya sog'liqni saqlash agentliklari, xususan Koreya sharq tabobati instituti (KIOM) tomonidan an'anaviy usullarni zamonaviy fan bilan uyg'unlashtirish ustida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda [12]. Sharqona tabobatga asoslangan koreys an'anaviy davolash uslublari orasida asal bilan davolash va choy terapiyasi o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. Bemorning holatiga ko'ra shifobaxsh o'simliklar tanlanib, choy terapiyasi amalga oshiriladi. Jarayon davomida bemorlarning oyoq qismlari issiq vanna qilinadi. Koreyada joylashgan San muzeyida tibbiy turistlar uchun meditatsiya qilishga ruxsat etiladi. Bu ham sog'liqni saqlash, kasalliklarni oldini olish va yo'qotilgan quvvatni qayta tiklashda meditatsiyaning ahamiyatini keng yoritadi [13].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sog'liqni saqlash xizmatlariga bo'lgan talabning ortib borishi, zamonaviy tibbiy texnologiyalarning jadal rivojlanishi hamda xalqaro bemorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga intilish tibbiy turizmni jahon miqyosida strategik ahamiyatga ega tarmoq sifatida shakllantirmoqda. Tibbiy turizm nafaqat aholining sog'lig'ini mustahkamlashga xizmat qiladi, balki iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi, xizmatlar eksportini kengaytiradi, bandlik darajasini oshiradi va xorijiy investitsiyalarni jalb etishda muhim omil bo'lib namoyon bo'ladi.

Tadqiqot davomida sharq mamlakatlari, xususan, Janubiy Koreya tajribasini tahlil qilish asosida tibbiy turizmning muvaffaqiyatli rivojlanishi quyidagi omillarga bevosita bog'liqligi aniqlandi: davlat tomonidan tizimli qo'llab-quvvatlash, rivojlangan tibbiy infratuzilma, xalqaro standartlarga mos xizmatlar, samarali marketing siyosati hamda sog'liqni saqlash va turizm sohalari integratsiyasi. Ushbu jihatlari O'zbekistonda tibbiy va sog'lomlashtirish turizmini rivojlantirish uchun muhim metodologik va amaliy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

O'zbekistonda tibbiy va sog'lomlashtirish turizmi turizm sohasini diversifikatsiyalash, mavsumiylikni kamaytirish hamda pandemiyadan keyingi davrda sog'liqni tiklash, reabilitatsiya va profilaktika xizmatlariga bo'lgan talabni qondirish nuqtayi nazaridan strategik muhim yo'nalish hisoblanadi. Mamlakatning tabiiy-iqlim sharoitlari, mineral suvlar, sanatoriya-kurort salohiyati va nisbatan past narxdagi tibbiy xizmatlar raqobatbardoshlikni oshirish imkonini beradi.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, O'zbekistonda tibbiy va sog'lomlashtirish turizmini rivojlantirish bo'yicha quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:

- xorijiy bemorlarga xizmat ko'rsatuvchi tibbiyot muassasalari huzurida mehmonxona xizmatlari bilan integratsiyalashgan joylashtirish tizimini rivojlantirish zarur. Xususan, yulduzli toifaga ega mehmonxonalar darajasiga mos qulayliklarga ega tibbiy mehmonxonalarni (medical hotel) tashkil etish xorijiy bemorlarning turar joy xarajatlarini optimallashtirish va moliyaviy oqimlarni bevosita tibbiyot muassasalariga yo'naltirish imkonini beradi.

- mavsumiylikni kamaytirish maqsadida sog'lomlashtirish, profilaktika va reabilitatsiya yo'nalishlari bo'yicha sanatoriya-kurort muassasalarining faoliyatini faollashtirish hamda ushbu xizmatlarni xalqaro bozorda targ'ib etishga qaratilgan maxsus reklama va marketing kampaniyalarini yo'lga qo'yish lozim. Bunda raqamli marketing, onlayn platformalar va innovatsion texnologiyalardan keng foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

- tibbiy va sog'lomlashtirish turizmi obyektlarining infratuzilmasini xalqaro standartlarga moslashtirish, xizmatlar sifatini oshirish va tibbiy xodimlarning xorijiy tillarni bilish darajasini yaxshilash zarur. Bu xalqaro bemorlar uchun qulay va ishonchli muhit yaratishga xizmat qiladi.

- tibbiy turizmni rivojlantirishda davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish, investitsiyalarni rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish hamda sohaga ixtisoslashgan klasterlarni shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, tibbiy va sog'lomlashtirish turizmini kompleks rivojlantirish O'zbekistonda turizm industriyasining barqaror o'sishini ta'minlash, xizmatlar eksportini kengaytirish va mamlakatning xalqaro turizm bozorida nufuzini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. The Korea Health Industry Development Institute. Supporting Efforts to Promote the Global Healthcare Industry. 2022 Reports. <https://www.khidi.or.kr/eps> [1]
2. Korea Health Industry Development Institute (KHIDI). Medical Korea: Medical Service [Электронный ресурс]. – URL: <https://www.medicalkorea.or.kr/en/medicals-service> (дата обращения: 19.03.2025). [2]
3. R.Fernandez. Medical Tourism: Health Care in a Globalized World. – UK: Synesthesia in Print. 2024. – 460 p.; Frederick J. DeMicco, Ali A. Poorani. Medical travel brand management: success strategies for hospitality bridging healthcare (H2H). – Canada: Apple Academic Press. 2022. – 475 p.; Frederick J. DeMicco. Medical Tourism and Wellness Hospitality Bridging Healthcare (H2H). – Waretown, NJ: Apple Academic Press. 2021. – 480 p.; Bookman, M. & Bookman, K. Medical Tourism in Developing Countries. – New York: Palgrave MacMillan. 2007. – 245 p. [3]
4. Ананченкова, П.И., Неравенство в здравоохранении и проблема доступности лекарственных средств: роль медицинского туризма: монография / П.И.Ананченкова, Т.Н.Тимченко, В.В.Тонконог. – Москва: Русайнс, 2024. – 113 с. [4]
5. Дайхес А.Н. Научное обоснование организации экспорта медицинских услуг в регионе Российской Федерации: диссертация на соискание ученой степени кандидата медицинских наук. Спец. 14.02.03. [Место защиты: И.М. Сеченова Министерства здравоохранения Российской Федерации (Сеченовский Университет)]. – Москва. 2020. – 194 с. [5]
6. Щекин Г.Ю. Концептуализация феномена медицинского туризма в социологии медицины: диссертация доктора социологических наук. / Щекин Геннадий Юрьевич; спец. 14.02.05 [Место защиты: Волгоградский государственный медицинский университет]. – Волгоград, 2013. – с 309. [6]
7. Александрова А. Ю. Международный туризм [Текст] / А. Ю. Александрова. - М.: Аспект Пресс, 2012. – 470 с.
8. Wis Medical KR. Wis Medical KR rasmiy veb-sayti [Электронный ресурс]. – URL: <https://www.wistmedicalkorea.com> (дата обращения: 06.04.2024). [7]
9. Справочник по медицинскому туризму в Корею. Korea Tourism Organization. Medical Korea. 2023. – P. 16. [8]
10. Korea Tourism Organization (KTO). Korea Tourism Organization rasmiy veb-sayti [Электронный ресурс]. – URL: <https://knto.or.kr/eng/index> (дата обращения: 19.02.2025). [9]
11. Справочник по медицинскому туризму в Корею. Korea Tourism Organization. Medical Korea. 2023. – P. 5. [10]
12. The Korea Times. South Korea sees record high in inbound medical tourists [Electronic resource]. – 29.04.2024. – URL: <https://www.koreatimes.co.kr/southkorea/society/20240429/south-korea-sees-record-high-in-inbound-medical-tourists> (accessed: 19.05.2025) [11]
13. KIOM Annual Report, 2023. <https://reports.kiongroup.com/2023/ar/services/downloads.html> [12]
14. Museum SAN. Rasmiy veb-sayti [Электронный ресурс]. – URL: <https://www.museum-san.org> (дата обращения: 27.07.2024). [13]



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
